

NARSANI MUSODARA QILISH JAZOSINI IJRO ETISHNING ILMIY- NAZARIY TAHLILI

Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi katta o'qituvchisi, kapitan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14762366>

Musodara qilish jazo chorasi tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi tomonidan qo'llaniladi. Agar O'zbe-kiston Respublikasining qonunlarida boshqacha qoida nazarda tutil-magan bo'lsa, huquqbuzarning shaxsiy mulki bo'lgan ashyogina musodara qilinishi mumkin. Kontrabanda ashyolari egasi kim bo'lishidan qat'i nazar, musodara qilinadi.

V.V.Golovko va K.V.Maslov fikricha, **musodara qilish jazo** - ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli yoki predmetini musodara qilish muomaladan chiqarilmagan ashyolarni federal mulkka yoki davlatning mulkiga majburiy bepul o'tkazishdan iborat. Ma'muriy javobgarlik chorasi sifatida musodara qilish sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan ma'lum bo'lib, u imperiya davlatchiligining asosi sifatida mulkka inqilobiy bosim o'tkazishning asosiy vositalaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Uni ma'muriy organlar "taslim qilingan ekspluatator sinflarning iqtisodiy qudratini yo'q qilishga" ko'maklashuvchi "ma'muriy va iqtisodiy ta'sir choralari" sifatida qo'lladilar¹

V.I.Salniyning fikricha, musodara qilish faqat sud qaroriga ko'ra qo'llanilishi mumkin shuningdek, musodara qilish jazosi ijrosini ta'minlashda quyidagi muammolar uchraydi:

birinchidan, ko'pincha mol-mulk ma'lum sabablarga ko'ra uning haqiqiy egasiga emas, balki uning yaqinlari - qarindoshlari, tanishlari yoki yollanma begona shaxslariga ro'yxatdan o'tkaziladi;

ikkinchidan, yashirin mulkchilik munosabatlarining yana bir varianti mol-mulkni tegishlicha rasmiylashtirmasdan - og'zaki kelishuv asosida yoki sotish huquqi bilan ishonchnoma asosida sotib olishdir. Bunday bitimlar, masalan, davlat chegarasi hududidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan avtomobillarni sotib olishda amalga oshiriladi².

Nazarimizda, yurtimizda bunday muammolar faqat jinoiy musodara qilish jazosida uchrashi mumkin. Chunki, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli bo'lgan ashyoni yoki ma'muriy huquqbuzarlikning bevosita ashyosini musodara

¹ Головки В.В., Маслов К.В. Назначение административного наказания за административные правонарушения в области дорожного движения в виде конфискации транспортного средства и административного ареста: проблемы и перспективы //Алтайский юридический вестник. - 2017. - №. 4. - С. 75-80.

² Салный В.И. Некоторые вопросы конфискации имущества в системе административных наказаний //Инновационная наука. - 2023. - №. 4-2. - С. 101-103.

qilish mazkur ashyoni haq to'lamasdan majburiy tarzda davlat mulkiga o'tkazishdan iborat bo'lib, ushbu chora jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tomonidan qo'llaniladi³

Musodara qilish chorasining qo'llanish tartibi, musodara qilish mumkin bo'lmagan buyumlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasining MJtK va boshqa qonunlar bilan belgilanadi. O'qotar qurollar va o'q-dorilarni, boshqa ov qurollarini musodara qilish asosiy tirikchilik manbai ovchilik bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Tojikiston Respublikasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksining 846-moddasiga muvafiq, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli yoki bevosita obyekti bo'lgan ashyolarni musodara qilish to'g'risidagi sudyaning qarori Tojikiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda, qurol, patronlar, o'q-dorilar va giyohvandlik vositalarini musodara qilish to'g'risidagi qaror esa ichki ishlar organlari tomonidan ijro etiladi.

Asarlarning va fonogrammalarning musodara qilingan nusxalari, ularni takrorlash uchun foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalar hamda Tojikiston Respublikasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etishning boshqa qurollari yo'q qilinishi lozim, asarlarning yoki fonogrammalarning musodara qilingan nusxalari mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlar egasining iltimosiga ko'ra berilgan hollar bundan mustasno⁴.

Fikrimizcha, yurtimizda musodara qilish jazosi intellektual mulklarni o'zlashtirishda ham qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ya'ni asarlarning va fonogrammalarning musodara qilingan nusxalari, ularni takrorlash uchun foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalar nisbatan qo'llash ham maqsadga muvofiq.

Ushbu jazo shaxslarga nisbatan qo'llanilishi yillar kesimida quyidagicha o'z aksini topadi:

- 2020-yilda **15 ta** shaxsga;
- 2021-yilda qo'llanilmagan;
- 2022-yilda **36 ta** shaxsga;
- 2023-yilda **51 ta** shaxsga;
- 2024-yilning birinchi yarmida **21 ta** shaxsga qo'llanilgan.

³ O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. [Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-97664>. Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].

⁴ Кодекс Республики Таджикистан об административных правонарушениях [Elektron manba: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30414710 Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].



Musodara qilish jazosi viloyatlar kesimida quyidagicha qo'llanilgan:

2020-yilda:

- Andijon viloyatida **6 ta**;
- Buxoro viloyati **1 ta**;
- Qashqadaryo viloyatida **3 ta**;
- Namangan viloyatida **2 ta**;
- Farg'ona viloyatida **3 ta** shaxsga nisbatan ushbu jazo tayinlangan.

2022-yilda:


- ❖ Qoraqalpog'iston Respublikasi **3 ta**;
- ❖ Buxoro viloyati **6 ta**;
- ❖ Qashqadaryo viloyatida **3 ta**;
- ❖ Jizzax viloyati **1 ta**;
- ❖ Samarqand viloyatida **1 ta**;
- ❖ Sirdaryo viloyatida **2 ta**;
- ❖ Surxondaryo viloyatida **1 ta**;
- ❖ Toshkent viloyati **6 ta**;
- ❖ Toshkent shahri **3 ta**;
- ❖ Xorazm viloyati **3 ta**;
- ❖ Farg'ona viloyatida **7 ta** shaxsga nisbatan ushbu jazo tayinlangan.

2023-yilda:

- ❖ Qoraqalpog'iston Respublikasi **2 ta**;
- ❖ Andijon viloyatida **13 ta**;
- ❖ Buxoro viloyati **6 ta**;
- ❖ Qashqadaryo viloyatida **5 ta**;
- ❖ Namangan viloyatida **2 ta**;
- ❖ Samarqand viloyatida **1 ta**;
- ❖ Sirdaryo viloyatida **1 ta**;
- ❖ Surxondaryo viloyatida **1 ta**;
- ❖ Toshkent viloyati **3 ta**;
- ❖ Toshkent shahri **4 ta**;
- ❖ Xorazm viloyati **7 ta**;
- ❖ Farg'ona viloyatida **6 ta** shaxsga nisbatan ushbu jazo tayinlangan.

2024-yilda:

- ❖ Qoraqalpog'iston Respublikasi **2 ta**;
- ❖ Buxoro viloyati **1 ta**;
- ❖ Qashqadaryo viloyatida **1 ta**;
- ❖ Navoiy viloyatida **1 ta**;



- ❖ Samarqand viloyatida **2 ta**;
- ❖ Toshkent viloyati **9 ta**;
- ❖ Xorazm viloyati **3 ta**;
- ❖ Farg'ona viloyatida **2 ta** shaxsga nisbatan ushbu jazo tayinlangan⁵.

O'zbekiston Respublikasi MJtKning **337-339-moddalariga** muvofiq, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday ashyo bo'lgan narsani musodara qilish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-maydagi **"O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"**gi

PQ-3016-son qarori bilan tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi **Majburiy ijro byurosi organlarining davlat ijrochilari** tomonidan ijro etiladi⁶.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday ashyo bo'lgan musodara qilingan narsani sotish va yo'q qilib tashlash amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish to'g'risidagi qaror ijro etilganidan so'ng davlat ijrochisi ijro ishi yuritishni tamomlash to'g'risida qaror chiqaradi va uning bir nusxasini uni chiqargan jinoyat ishlari bo'yicha **sudga yuboradi**.

Musodara qilingan mol-mulkni soliq, moliya, bojxona xizmati, sud organlari, ichki ishlar organlari va adliya xodimlarining, shuningdek, bu mol-mulkni sotuvchi tashkilot xodimlarining sotib olishlari taqiqlanadi.

Tojikiston Respublikasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksining 846-moddasiga muvafiq, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli yoki bevosita obyekti bo'lgan ashyolarni musodara qilish to'g'risidagi sudyaning qarori Tojikiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda, qurol, patronlar, o'q-dorilar va giyohvandlik vositalarini musodara qilish to'g'risidagi qaror esa ichki ishlar organlari tomonidan ijro etiladi⁷.

⁵ Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning 2024 yil 1-yarmidagi faoliyat yakunlarining asosiy ko'rsatkichlari [Elektron manba: <https://stat.sud.uz/>. Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3016-son qarori [Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-3220004>. Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].

⁷ Кодекс Республики Таджикистан об административных правонарушениях [Elektron manba: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30414710 Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 22-martdagi "Musodara qilingan, egasiz mol-mulkni, vorislik huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni va xazinalarni hisobga olish, baholash va sotish tartibi haqidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 151-son qarori muvofiq, pul mablag'i, chet el valyutasi, cheklar, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar, aksiyalardan tashqari jamg'arma omonatlari pul-buyum lotereyasi chiptalari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga o'tkaziladi.

➤ tegishli organlarning mol-mulkni musodara qilish haqidagi hukmi, ajrimi yoki qarori bekor qilinganda;

➤ sud organlari mol-mulkning bir qismini hibsdan ozod etish (yozma ro'yxatdan chiqarish) haqida qaror (ajrim) chiqarganda;

➤ mol-mulk egasiz deb topilganligi haqidagi sud qarori bekor qilinganda;

➤ sud organlari tomonidan davlatning vorislik huquqi haqidagi guvohnomalar haqiqiy emas deb topilganda yoki mol-mulkning vorislik huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tishi haqidagi sud qarori bekor qilinganda⁸.

Qozog'iston Respublikasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksiga binoan, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda qurol yoki predmet bo'lib xizmat qilgan ashyoni, shuningdek ma'muriy huquqbuzarlik natijasida olingan mol-mulkni musodara qilish ularni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat mulkiga majburiy va bepul o'tkazishdan iboratdir. Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsning qonunga xilof egaligidan mulkdorga qaytarilishi lozim bo'lgan yoki muomaladan chiqarilgan ashyoni olib qo'yish musodara hisoblanmaydi. Muomaladan chiqarilgan buyum davlat mulkiga o'tkazilishi yoki yo'q qilinishi lozim.

1. Agar ushbu Qozog'iston Respublikasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksining Maxsus qismida boshqacha tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, faqat huquqbuzarning mulki bo'lgan ashyogina musodara qilinishi mumkin⁹.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 22-martdagi "Musodara qilingan, egasiz mol-mulkni, vorislik huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni va xazinalarni hisobga olish, baholash va sotish tartibi haqidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 151-son qarori. [Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-619874>. Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].

⁹ Кодекс Республики Казахстан Об административных правонарушениях [Elektron manba: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000235>. Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].